

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DARS JARAYONIDA INTERFAOL METOD VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Kazakova Sojida Nariman qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan ta’limda zamonaviy texnologiyalar ahamiyati, ularning turlari va dars jarayonlarida qo‘llash haqida so‘z boradi. Shu bilan birgalikda texnologiyalar yordamida darslarning yanada qiziqarli, interfaol va samarali bo‘lishi ham qisqacha yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, multimedia vositalari, onlayn platformalar, elektron darsliklar, audiokitoblar, ta’limiy o‘yinlar.*

Hamмамizga ma’lumki bugungi kunda dunyo bo‘ylab ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga raqamli texnologiyalar ham insonlar hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi omil bo‘lib bormoqda. Shubhasiz kundalik hayotimizda texnologiyalar ajralmas bo‘lagimiz desak ham o‘rinlidir. Oldingi davrlardagi maktublar, qaydnomalar, yozma hisobotlar o‘rnini elektronikalar egallayotgani ham o‘z o‘rnida ishimizni anchagina oson qilmoqda. Bunday keng qamrovli rivojlanishlar bizning mamlakatimizni ham chetlab o‘tgani yo‘q.

Yurtimizda ham ta’lim shu bilan birgalikda boshqa sohalarda ham texnologiyalar o‘z kuchuni ko‘rsatmoqda. Ya’ni tibbiyot, iqtisod kabi sohalarda bu vositalar orqali ko‘plab yutuqlarga erishilmoqda. Ayniqsa bugungi kunda ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash zamon talabi bo‘lib bormoqda. Bunga dalil sifatida Prezidentimizning bir qator qaror va farmoyishlarini misol qilishimiz mumkin: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini takomillashtirish hamda dars jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish borasidagi islohotlari izchil davom etmoqda. Jumladan, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-sonli qarori — “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjatda ta’lim jarayonini raqamlashtirish, o‘quv muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda elektron ta’lim platformalarini yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu qaror orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun zamonaviy axborot muhiti yaratish, darslarni interfaol usullar asosida tashkil etish uchun keng imkoniyatlar belgilab berilgan.

Shuningdek, 2022-yil 11-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-134 son farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur”da ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Mazkur farmonda raqamli ta’lim resurslarini yaratish, elektron darsliklar bazasini kengaytirish hamda ta’lim tizimini yagona elektron boshqaruv platformasiga o‘tkazish choralari nazarda tutilgan.

Bu hujjatlar O‘zbekiston ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, o‘quv jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish va yosh avlodni raqamli dunyoda raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'qituvchilar dars jarayonini yanada qiziqarli qilish bilan birga o'quvchilarning savodxonlik bilimlarini ham oshirib boradilar. Bilamizki, boshlang'ich ta'lim – o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiruvchi, orzular ostonasi, yangi do'stlar bilan tanishtiruvchi poydevor bosqichdir. Aynan shu bosqichda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning ahamiyati juda kata. Chunki bolalar eshitgan ma'lumotidan ko'ra ko'rgan ma'lumotlarini ko'proq esda saqlab qoladilar. Ya'ni multimedia vositalari o'qituvchining o'ng qo'li bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda dars jarayonlarida qo'llaniladigan interfaol metod va ta'limiy o'yinlarning ham roli katta. Masalan matematika darslarida “LearningApps” orqali masalalar yechish, ona tili darslarida o'quvchilarning so'z boyliklarini oshirish uchun harflardan so'z tuzish, tabiiy fan amaliy mashg'ulotlarida video tajribalar ko'rsatish, ingliz tili darslarida “Quizlet” orqali so'zlarni mustahkamlash mumkin.

O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “Sinkveyn”, “BBB”, “Beshinchisi ortiqcha”, “6x6x6”, “Bahs-munozara”, “Rolli o'yin”, “FSMU”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Yumaloqlangan qor”, “Zigzag”, “Oxirgi so'zni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yintopshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yintopshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Bunday texnologiyalar va interfaol metodlar, ta'limiy o'yinlar yordamida o'qitish orqali quyidagi afzalliklarga erishish mumkin:

- O'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish;
- Darsni jonli va qiziqarli qilish;
- Har bir o'quvchining individual hisobga olishga yordam berish;
- Axborot madaniyatini shakllantirish.

Zamonaviy texnologiyalar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning muhim vositasidir. O'qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni doimiy o'rganib, amaliyotda tatbiq etib borishlari kerak. Quyida bugungi kunda pedagoglar tomonidan keng qo'llanilayotgan metodlarning biri bilan yaqindan tanishamiz.

“Videotopishmoq” metodi. Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;

- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi. Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi.

O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi. Masalan, “Yil fasllari” kabilar asosida o'quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi. Bu metodni 2-sinfda o'quvchilarning unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini sinash, uni mustahkamlash maqsadida ham qo'llash mumkin. Masalan, ekran orqali unli tovushlar ko'rsatiladi. Galma-galdan shu tovush bilan boshlanadigan so'zlarni ifodalaydigan rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar rasmlardagi narsa, buyum nomlarini daftarlariga yozadilar. Bunda o'quvchilarning xotiralarini mustahkamlanadi, so'z boyligi oshadi. Namuna: Unlilar A – atirgul O' - o'rik.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bunday yondashuv o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni faollikka, izlanishga va mustaqil fikrlashga undaydi. Shuningdek, o'qituvchining metodik mahoratini oshiradi, dars jarayonini samarali, qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini yaratadi.

Shu bois, pedagoglar doimo yangicha metodlar va texnologiyalarni o'rganib borishlari, ularni o'z tajribasiga faol joriy etishlari zarur. Ana shundagina boshlang'ich ta'lim jarayoni zamon talablari bilan uyg'unlashgan holda samarali natija beradi va o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan multimedia vositalari, elektron resurslar, raqamli platformalar, animatsiyalar, ta'limiy o'yinlar va interaktiv dasturlar dars mazmunini vizual, qiziqarli hamda tushunarli shaklda yetkazish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilar diqqatini jamlash, mavzuni chuqurroq idrok etish hamda o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28- apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4699 sonli qarori
2. . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur to'g'risida" gi PF-134 sonli farmoni
3. N.N.Azizxo'jayeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” Toshkent. 2018y
4. B. Ziyamammedov, M.Tojiyev “Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli” Toshkent. 2020y

FOYDALANILGAN SAYTLAR

1. www.metodlar.uz



2. www.bilimdon.uz
3. www.lexuz
4. www.ziyouz.com
5. www.kutubxona.uz